

**Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif- tarbiya berishda buyuk
mutafakkirlar merosidan foydalanish**

*Andijon viloyati Bo'ston tumani 14-umumta'lif maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Vahobova Saidaxon Sabirdjanovna*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif-tarbiya berishda buyuk mutafakkirlarimiz merosidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ayni maqola ham buyuk mutafakkirlarimizning meroslaridan samarali, unumli foydalangan holda o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berish haqida

Tayanch so'zlar: tarbiya, komil inson, boshlang'ich ta'lif, hadisshunoslik, Farobiy.

Annotation: It is appropriate to use the legacy of great thinkers in the education of primary school students. This article is also about educating students using the heritage of our great thinkers effectively and meaningfully.

Аннотация: Целесообразно использовать наследие великих мыслителей в воспитании младших школьников. Эта статья также посвящена обучению студентов эффективному и осмысленному использованию наследия наших великих мыслителей.

Har bir xalqning ma'naviy merosi mavjud. Bugungi kunda har sohada taraqqiy etib borayotan Vatanimizda ham eng katta e'tibor ta'lif sohasiga qaratilmoqda. Ayniqsa, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif sohalariga ko'proq urg'u berilmoqda. Chunki bu ta'lif sohalari kelajagimiz ucun poydevor hisoblanadi. Yurtimizda ma'naviy meros qoldirgan mutafakkirlarimiz juda ko'p. Biz ular bilan faxrlansak arziydi. Chunki ular hozir biz bilan bo'lmasliklari mumkin. Lekin ularning ibratli hayot yo'llari biz uchun doimo ko'zgu bo'la oladi. Ma'naviy meroslari bizga to'g'ri yo'lni ko'rsata oladi. Yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishda o'z bilimlarmiz bilan

birgalikda buyuk mutafakkirlarimiz meroslariga ham murojaat qilamiz. Ularning ma’naviy meroslari yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

O’tmishtga nazar tashlaydigan bo’lsak, tabiatning oliy mahsuli, siyomosi inson o’z aqli, zakovati bilan o’zini himoya qiladigan, mustaqil, erkin qilib yaratilgan. Shuning uchun tabiat hodisalari jarayonlarini o’rganish, ulardan yashash uchun oqilona foydalanish asosida insonlar sekin-asta madaniylashuvi, ijtimoiylashuvi asosida ma’naviy qadryatlar shakllana boshlagan. Ilk asrlarda ta’lim yoshlarga ota-onalarning yashash uchun tabiatdan foydalanishi, uy-rozg’or yuritish, o’zaro va tabiatga munosabat axloqi, odobi sifatida shakllana boshlagan bo’lsa, bilimlar hajmi kengaya boshlagach maxsus tarbiyachilarga ehtiyoj tug’ila boshlagan. Yurtboshimiz I.A. Karimov “Buyuk maqsad yo’lidan og’ishmaylik (O’z. Res.si Oliy Kengashining o’n ikkinchi sessiyasidagi) nutqida ta’kidlagan: “Xalqimizning tayanchi ma’naviy merosining o’zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo’lmog’imiz kerak.”

Shu jumladan Juhon sivilizatsiyasiga hissa qo’shgan qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Ajdodlarmizdan qolgan boy meros o’zining o’ta muhimligi va ilmiy salohiyati bilan hanuzgacha butun dunyo xalqlarini lol qoldirb kelmoqda. Vatanimiz tarixining ibrat olsa arzigulik zarvaraqlarini o’rganish va ana shunday meros namunalaridan foydalangan holda komil insonlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Inson tarbiyasida o’zidan meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish buggingi kunning vazifalaridandir. Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlarida ham ta’lim metodlari masalasiga jidiy e’tibor qaratilgan. Buni al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning turli talim metodlari haqidagi fikrlari, qarashlari amal qilgan ta’lim yo’nalishlarida yaqqol sezish mumkin. Hadisshunos olimlar ichida eng kuchlisi Imom al-Buxoriydir. Uning katta va kichik asarlari mavjud bo’lib, ular orasida “Al-jome as-sahih” alohida o’rinda turadi. Bu asar ahamiyati jihatdan Qur’ondan keyingi ikkinchi diniy manba deb e’lon qilingan. Imom Buxoriy o’z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritgan,

hamda, ota-onani e'zozlash, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga davat etadi. Inson hislatlari haqida qarashlarda jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapisish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratigini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan kuchlilikda emas, balki jahl chiqqanda o'zini tuta olishd deb hisoblaydi. Yana uning asarlarida oilaviy muhitning barqarorligi, tinch, oila a'zolarining sog'-salomat, to'q bo'lishi, kichiklarga izzatda, kattalarga hurmatda bo'lish ... kabi umuminsoniy, axloqiy qadryatlar uning asarlarida aks ettirilgan. Abu Nasr Farobi esa komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning sifatlatchalarini tuzib chiqqan. Farobi fikricha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa deydi alloma faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash orqali erish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho'qqisi – bilim olish jarayonidir. Qomusiy olim Abu rayhon Beruniy ta'limotda bilim oluvchilarga qalbingn yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'limgan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, ochko'zlikdan vas hon-shuhratdan saqlashi lozimligini aytadi. U barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda deb bilgan. Bilimlarni o'zlashtirishda kishida bilimga intilish, qiziqish va ijtimoiy muhit o'rnini alohida ta'kidlaydi. Yana bir Hadisshunos olim at-Termiziyy hadislarida odamlarni ahil bo'lishga, jamoaga foyda keltirishga, do'stlik va birodarlikka da'vat etuvchi hadislari ko'p uchraydi. Alloma, sag'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, yoshlikdanoq shlikdanoq sog'liqni saqlashga, vaqt ni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: "Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri sog'lik, ikkinchisi bo'sh vaqt".

Ibn Sinoning ta'lim- tarbiyaga oid qaysi asariga qaramaylik, bu asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizning ta'lim- tarbiyasida, ularning zamon talablariga javob bera oladigandono, bilimli va kuchli bo'lishlaridagi ahamiyati kattaligiga amin bo'lamiz. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rabi

turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoniga bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishni uqtiradi. Shu bois ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyyotkor bo'lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash uchun zarur deb hisoblaydi.

Yetuk mutafakkir Yusuf Hos Hojib ta'limotida ham inson komilligi, kamoloti masalalari keng o'rinni olgan. Olimning eng mashhur "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama koil inson qilib tarbiyalaydigan yetuk ma'rifiy asari, pand-nasihatlari chin ma'noda komillikka yetaklovchi asardir. Asarda axloqiy hislatlar – insoniylok, rostgo'ylik, ishonch, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, insof, saoqat, aql-zakovat, halollik kabilar ulug'lanadi. Faxr bilan aytishimiz mumkinki, jonajon zaminimizdan Jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo'shgan allomalar, faylasuf olimlar juda ko'p yetishib chiqqan. Ularning merosidan foydalanib milliy mentalitetimizni, qadtyat-u an '-analarimizni, tafakkurimizni, samimiy dunyoqarashlarimizni yanada boyitish hamda o'zlashtirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxat:

1. Abu Rayhon Beruniy. "Tanlangan asarlar" Toshkent Fan 1986-yil;
2. I.A.Karimov "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik" O'z. Res. Oliy Kengashi XII sessiyasidagi nutqi 1993-yil.